



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

KURS ISHI

MAVZU: "Saddi Iskandariy" dostoni

**BAJARDI: 7.14-guruh talabasi Eliboyev Islom .
TEKSHIRDI: Mamatqulov Muzaffar.**

GULISTON – 2016.

Mavzu: “Saddi Iskandariy” dostoni.

Reja:

- **1. “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINING YARATILISH TARIXI.**
- **2.DOSTONDAGI BADIY OBRAZLAR.**
- **3.DOSTONNING BADIY QIYMATI.**

Kirish

Bu asar dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch soʻhibqironning eng mashhurijaxongir Iskandarga bafishlangan boʻlib, "Xamsa"ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn (ikki shoxli yoki kun chiqish va kun botish xukmdori) nomi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning "Shoʻxnoma" dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u xaqda maxsus "Iskandarnoma" degan doston yozadi. Xusrav Dexlaviy bu dostonga javob tarzida "Oyinayi Iskandariy" asarini yozgan boʻlsa, Abduraxmon Jomiy oʻz dostonini "Xiradnomayi Iskandariy" deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, oʻz asariga "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori") deb nom beradi.

"Saddi Iskandariy" "Xamsa"dagi eng yirik doston boʻlib, 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 14 bobni oʻz ichiga oladi.

1- bob anʼnaviy xamd – Alloʻxning sifatlari taʼrifiga bafishlangan. Navoiy ushbu bobda tasavvuf taʼlimoti asosida olamning yaratilish tarixiga toʻxtalib oʻtadi: 9 qavat osmon, sayyoralar, yulduzlar tarkumining xar biriga aloʻxida taʼrif beradi. Yaratganning buyukligiga xamdu sano aytadi. Bularning barchasidan maqsad eng oliy zot Odamni yaratish ekanligini taʼkidlaydi:

*Karam birla xalq aylagay olame,
Bu olamda maqsud anga odame.
Faraz odame anga olam tufayl,
Nekim fayri olamdur, ul xam tufayl.*

2-bob munojotni oʻz ichiga oladi. Navoiy bobda Alloʻxning karami kengligi xaqida gapirar ekan, banda zoti mavjud ekan, uning gunoʻx ishlar qilishi tabiiy degan aqidani ilgari suradi:

*Iloʻhiy, alarkim gunaʻxkor ekin,
Sen oʻtkarmagan ne gunaʻx bor ekin?
Chu xar mujrimelim, sen etting karam,
Soʻrulmas xamul jurm ila oʻzga xam.
Agar afv birla karam budurur,
Bori xalqning jurmi maʼrufdurur.*

Munojot soʻngida Navoiy quyosh erni oʻz nurlari bilan munavvar qilgan choʻfda zarralar orasidagi farqni faxmlab boʻlmaganidek, zarralarga karam qilgan choʻfingda Navoiyga xam bir zarra kabi karam aylagil, uning gunoʻxlarini kechirgil deb iltijo qiladi:

*Yorurda quyosh partavidin saro,
Qachon farq o'lur faxm zarrot aro.
Qilur vaqt bu zarralarfa karam,
Navoiyfa lutf ayla bir zarra xam.
Sazo andin ar jurmu pindor erur,
Sen ul qilki sendin sazovor erur.
Xato aylaganni xisob aylama,
Xatosifa loyiq azob aylama.*

Dostonning 3-bobi "sayyid ul mursalin" (payfambarlar ulufi) rasuli akram vasfi (na't)dan iborat. Navoiy dastlabki baytlarda payfambarlik nuri xaqida gapirar ekan, Odam Ato unga o'fil, qolganlar nabira qatoridadir deydi va barcha muqaddas kitoblarda uning xususiyatlari bayon qilinganligini ta'kidlaydi. Rasuli akramning tufilishi go'yo ko'kda yana bir quyoshning porlashiga o'xshatiladi:

*Sening tufmofing ravshan aylab jaxon,
Aningdekki, tuqqay quyosh nogaxon.*

An'anaga muvofiq, na'tdan so'ng me'roj tuni ta'rifi keladi. Navoiy bu bobda payfambarimizning birin-ketin 9-osmonga ko'tarilganlari, sayyoralarning bu xolatni ko'rib, xayratga tushgani, nixoyat Lomakon olamiga sayr qilib, 70 ming qavat parda ko'tarilib, Janobi Xaq bilan diydorlashganlari jarayonini kuchli pafos bilan tasvirlaydi. Ularning erga qaytishlari xam falak axli va maloyiklar tomonidan chuqur xayrat bilan kuzatilgani betakror badiiy san'atlar vositasida bayon qilinadi:

*Falak axli ichra alolo tushub,
Malak xaylifa sho'ru favfo tushub.
Maloik tutub yo'l boshin javq-javq,
Tamoshosida borch ko'nglida shavq.
Jamoli fa chun ko'zlarin ochibon,
Tabaq nurlar boshifa sochibon.
Anga nur sochmoqqa monand bu
Ki, sochqay kishi Baxri Ummonfa suv.*

Dostonning 5- bobi "Xamsa" takmili (mukammal bitkazish) xususida bo'lib, Navoiy bu bobda unda "Xamsa" yozish xavasi ancha ilgari, Nizomiy va Dexlaviy "Xamsa"larini o'qib yurgan cho'flaridayoq uyfonganligini bayon qilib, uluf ustozlari ruxidan madad so'raydi:

*Bu vodiy aro Xizri roxim bo'ling,
Qayon yuz ketursam panoxim bo'ling.
Burundin chu ko'rguzdunguz yorliq,
Base etti sizdin madadkorliq.*

*Kichik erkanimdin bo'lub qoshima,
Uluƣ muddao soldingiz boshima.*

6-bob so'z ta'rifi, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dexlaviy madxiga bafishlangan. Navoiy bu bobda dastlab so'zga ta'rif berar ekan, uni o'z ahamiyati bilan inson idrok etgan xamma narsadan yuqori deb ba'xolaydi, uni "javxari jon", "obi xayvon" degan sifatlashlar bilan madx qiladi:

*Biyikrak maqom ichra aflokdin,
Ne aflokdin, vaqmu idrokdin...
Bashar zotida javxari jon xam ul,
O'luk jismida obi xayvon xam ul.*

Navoiy so'z xazinasiga ega bo'lganlarning nodiri yaktosi sifatida Ganjada parvarish topgan zot Nizomiy Ganjaviyni tilga olib, kotiblarning xomiysi Atorud (Merkuriy) uning xizmatkoridir deydi. Shuningdek, bu bobda Nizomiy beshligiga munosib javob bitgan Xusrav Dexlaviy xam madx etilib, unga so'z jodugari, ilm xikmat bilimdoni deb ta'rif beriladi. So'z avjida Nizomiy quyosh bo'lsa, Dexlaviy Mushtariy kabidir deyiladi:

*So'z avjida gar ul ma'xi xovariy,
Bu gar yo'q ma'xi xovariy, Mushtariy.*

7-bob Nizomiy va Dexlaviyning nazmdagi izdoshlari Nuriddin Abdura'xmon Jomiy madxiga bafishlangan. Navoiy kitobot (xarf) san'ati vositasida Jomiyning taxallusiga ishora qilib, uning nazmini "jom" va "may" deb ta'riflaydi va bu nazmdan eru ko'k eli mastu notavon bo'lganini aytadi:

*Dema jom ila mayki, nazmi ravon,
Eru ko'k elin ayladi notavon.*

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda Jomiyning fazalu masnaviy janrlarida erishgan yutuqlariga xam to'xtalib o'tib, uning "Xamsa" tarkibiga kiruvchi dostonlarini nomma-nom sanab o'tadi:

*Fazal dardu so'zini, vaq-vaq, ne dey,
Desa masnaviy, Alloq-Alloq, ne dey...
Bo'lub jilvagar tab'i ko'zgusida
Ki, sabt ayladi "Xamsa" o'trusida...
Burun jilva aylab ayon "Tuxfa"si,
Berib olam axliga jon tuxfasi.
Yana "Subxa" jon rishtasin tor etib
Ki, qar muxra bir durri shaxvor etib.
Chu Yusuf so'zin oshkor aylabon,
Zulayxo kibi elni zor aylabon.*

*Chekib xoma "Layliyu Majnun" sari,
Yuz ofat solib to'fu xomun sari.
Bu damkim qilib xomasin durfishon,
Sikandar xadisidin aytur nishon.*

Bu ma'lumotlar adabiyotshunoslikdagi Jomiyning "Xamsa" yozgan-yozmaganligi bilan bo'liq baxslarga xam munosib javob bo'la oladi.

Dostonning 8-bobi – "Inoyat kuyoshi vasfi va xidoyat buluti ta'rifida" deb atalib, bu bobda Navoiy kimgaki baxtu iqbol yor bo'lsa, uning xamma ishida zafar bo'ladi, tikan ushlasa funcha, tuproq olsa oltin bo'ladi, bularning barchasi Xudodan, shunday ekan unga shukrona bildirish kerak degan fikrlarni keltirar ekan, Alloxi unga nazm yozish fazilatini taqdim qilgani uchun unga shukrona aytadi va nazmning turli sinf (janr)larida shuxrat qozonganini faxr bilan bayon qiladi:

*Fazal tarzifa avval aylab sitez,
Jaxon ichra soldim uluf rustaxez.
O'kur vaqti axli salomat muni
Ko'rub olam ichra qiyomat kuni...
Xar asnofi zikri emas sha'nima,
Bilur xar kishi boqsa devonima.*

Shuningdek, Navoiy nazmdagi bu muvaffaqiyatlariga qanoat qilmay, uluf muddao "Xamsa" yozish niyatida ekanini, bu yo'lda Nizomiy va Dehlaviylarning nuroniy ruhi, Jomiyning ilohiy quvvatiga "Qur'on" tilovat qilib, fotixa o'qiyman deb yozadi:

*Alarning ravoni pur anvorifa,
Bu birning dofi quvvati korifa.
Qilib fotixa xatmi ixlos ila,
Ko'zum baxrida jismi favvos ila.*

9-bob Shox Foziy Xusayn Boyqaro ta'rifiga bafishlangan. Navoiy bu bobda mubolafa san'ati vositasida Muhammad (s.a.v) payambarlar orasida aloxida mavqeda bo'lsa, Sulton Xusayn Boyqaro xam barcha shoxlar ichida shunday maqomdadir deb yozadi. Shuningdek, uning janggoxdagi maxoratini tasvirlar ekan, doston mazmuni bilan bo'liq ravishda dushmanlariga nisbatan saddi Iskandariydek fov chekadi, agar jaxonda Iskandardek ulufsifat zotni topish kerak bo'lsa, Sulton Xusayndan boshqasi mos kelmaydi deb yozadi. Hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni prototipi aslida bizning ajdodlarimizdan biri emasmikan, degan fikr ko'pchilikni qiziqtirsa kerak. Negaki, har bir asarida milliylik ufurib turgan, turkiylar sha'nini yuksaltirishdek oliyjanob maqsad yo'lida butun

umrini sarflagan buyuk shoir "Xamsa"dek yirik asarida o'z maslagini yanada kengroq amalga oshirishga intilgan bo'lishi tabiiy.

Asar bosh qahramoni kimligini aniqlash uchun, bizningcha, asarga oddiy kitobxon, badiiy adabiyot shaydosi sifatida yondashishning o'zi kamlik qiladi. Dostonni uyg'oq qalbli inson nigohi bilan Navoiy yashagan davr tarixini teran tahlil qilgan holda mutolaa qilmoq kerak. Ma'lumki, Alisher Navoiy yashagan davrda ilmiy adabiyotlar asosan arab tilida, badiiy adabiyot esa fors tilida bitilar edi. Bu bir necha yildan beri davom etib kelayotgan an'analigi bois, mazkur tillarning nufuzi baland edi. Boz ustiga forsiylar "Shohnomaxonlik", "Xamsaxonlik" qilishar va forsiyda shunday mumtoz asarlar bitilgani bilan faxrlanishar edi. Ayrim saroy shoirlari esa ochiqdan-ochiq turkiy tilni kamsitardi ham. Shunday vaqtda Navoiydek shoir jim turishi mumkinmi edi?

Hazrat Navoiy millat sha'ni uchun ma'rifat bilan kurashdi. To'rt devondan iborat g'azallarini yozib turk tilining nihoyatda boy va jozibador til ekanini isbotlagach, bu ishiga ham qanoatlanmay, "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida turk va fors tillarini o'zaro qiyoslab, turkiydagi har bir so'zning o'nlab sinonimlari borligi, fors tilida esa bu imkoniyat cheklanganini isbotladi. O'zi aytganidek, bu mamlakatni "yakqalam" aylagan shoir yoshi ulg'ayib, yetarlicha bilim va tajriba to'plagach, eng yirik asari - "Xamsa"ni yozishga kirishdi.

Biz shu o'rinda "Xamsa"ning boshqa dostonlariga to'xtalib o'tirmaymiz-da, "Saddi Iskandariy" va uning bosh qahramoni kimligi haqidagi mulohazalarimizni davom ettiramiz.

Xullas, taassurotlarning dastlabkisi shu bo'ldiki, asar bosh qahramoni Iskandar bizga tarixdan ma'lum Aleksandr Makedonskiyga aslo o'xshamaydi. Mutaxassislarning aytishicha, Qur'oni karimda zikr etilgan Zulqarnayn Akbar bilan Aleksandr Makedonskiy boshqa-boshqa odamlar. Makedoniyalik Iskandar Ollohning yagonaligiga imon keltirgan mo'min emas. Ya'juj va Ma'jujdan himoya devorini qurgan Zulqarnayn esa mo'min odamdir. "Himoya devori"ni makedoniyalik Aleksandr qurgan bo'lganida uni qadimshunos olimlar allaqachon topgan bo'lar edi.

Ammo, olimlarni qiynab kelayotgan muammo shundaki, Aleksandr Makedonskiy bilan Qur'oni karimda zikr etilgan Zulqarnayn obrazi qaysi davrda birlashib ketgan? Aniqrog'i, Zulqarnaynga Iskandar yoki Iskandarga Zulqarnayn oti qachon, qaysi xalqqa mansub olim yoki shoir tomonidan qo'shib yuborilgan?..

Ba'zi olimlarning fikricha, dostondagi obrazlar haqiqiy tarixiy shaxslardir. Jumladan, Arastu - Aristotel, Iskandar - Aleksandr. Shoir asarida ularni ulug'lamagan, o'zidan oldingi xamsanavislar kabi ular vositasida ideal shoh obrazini yaratgan.

Bizning fikrimizcha, Navoiy o'z salaflaridan farqli o'laroq, dostondagi ideal shoh obrazini orzu-umidlari, samoviy xayollaridan yaratmagan. Uni haqiqiy hayotdan topgan. Bu esa o'z navbatida doston voqealarini reallashtirishga xizmat qilgan.

Keling, yaxshisi bunday fikr uyg'onishiga turtki bo'lgan misollarga murojaat qilaylik, asarning XIX bobi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi *"Iskandarning saltanat tojidan sarkashliq qilib, xilofat taxtidin ayoq tortqoni va Rum ahli boshlarin oyog'iga qo'yub, aning maqdamidin taxt poyasin baland qilib, toj qadrin arjumand qilg'onlari va aning adli aynining quyoshi bila zulm shomining xuffoshin ko'r etib jahonni yorutqoni va zulm ahlining zulmatdek olam yuzidin qiroq tutqoni"*.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Filipp Ikkinchi (Faylaqus) dostonda tasvirlanganidek, Eron shohiga boj to'lab turuvchi vassal davlat rahbari emas, aksincha, buyuk imperiyachilik vasvasasiga uchragan tajovuzkor hukmdor bo'lgan. U miloddan oldingi 359 yildan 338 yilgacha Bolqon yarim oroli atrofidagi Fokida, Fessaliya, Xalkidika, Frakiya va boshqa davlatlarni bosqinchilik yo'li bilan Makedoniyaga qo'shib olgan. 338 yili Xeroniya yaqinida yunon polislarining birlashgan qo'shinlarini tor-mor keltirib, butun Yunonistonni Makedoniyaga bo'ysundirgan. U Eronga hujum boshlash arafasida turganda qizining to'yi kuni o'ldirilgan.

Shu birgina misoldan ayon bo'ladiki, "Saddi Iskandariy"dagi Faylaqus bilan tarixiy shaxs Filipp Ikkinchi o'rtasida mutlaqo o'xshashlik yo'q. Aksincha, bu ikkisi tamoman boshqa toifa odamlar. Shuningdek, ayni masalaga tarixiylik yuzasidan baho berilsa, otasi dushmanlari tomonidan o'ldirilib, vaziyat toju taxtni kuch bilan o'z qo'lida ushlab turishni taqozo qilib qolgan tig'iz bir paytda Aleksandrning taxtga chiqishdan bosh tortib tamanno qilishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Zero, bir lahzalik xotirjamlik uning ham boshini olib ketishi hech gap emasligiga har qanday siyosatdan yiroq odamning ham aqli yetadi. Demak, kamtarlik, xokisorlik, adolatparvarlik xususidagi bu bob Aleksandr Makedonskiy haqida emas.

U holda muzkur bobda kimning taxtni qabul qilishdan voz kechmoqchi bo'lgani haqida hikoya qilingan? Asarda tasvirlangan voqea Navoiydan u qadar uzoq bo'lmagan davrda yuz bergan. Qaynog'asi Amir Husaynning makru hiylalaridan

to'ygan Sohibqiron 1370 yili andisha yuzasidan o'zini emas, Suyurg'atmish O'g'lonni xon ko'tarib, lashkariga tartib berib, Husaynga qarshi yurish qiladi. Bunday yo'l tutishining sababi, Amir Temurning ulug' (katta) bobosi Qochuvli bahodir va Suyurg'atmishxonning ulug' (katta) bobosi Qobulxonlar o'zaro ahdnoma tuzgan edi. Ahdnomaga ko'ra xonlik Qobulxon avlodiga, sipohsolorlik Qochuvli bahodir avlodiga tayin etiladi. Sohibqiron saltanat ishiga o'zini to'liq munosib sezsa-da, ajodolari ruhiga hurmat yuzasidan Suyurg'atmishxonni xon ko'taradi. Ammo Husayn ustidan zafar qozonganlaridan so'ng barcha beklar ittifoq qilib, Amir Temurni shohlikka munosib ko'radi va unga bay'at qilishadi. Yig'inda Sohibqironning piri Sayyid Baraka ham qatnashadi. Amir Temur piri murshidi va o'ziga ishongan beklarning iltimosiga ko'ra saltanat yumushini zimmasiga oladi.

Ko'rinyaptiki, Amir Temur davlat boshqaruvini o'zining taxtparastligidan emas, dostonida tasvirlanganidek, raiyatning iltimosi bilan qabul qilgan.

Dostonning XXVII bobida yosh, tajribasiz, ammo jasoratli hukmdor Iskandar va hisobsiz qo'shin, cheksiz mamolik sohibi, shavkatli Doroning qo'shini to'qnashgani tasvirlanadi. Urushda Eron shohining ikki nafar sarkardasi xiyonatga yuz tutadi. Ular jangning borishini kuzatayotgan Doroning ikki yonidan kelib unga tig' sanchishadi. Shu bilan jang nihoyasiga yetadi. Doroning vasiyatlarini tinglagan Iskandar vafotidan so'ng uni izzat-ikrom bilan dafn etib, o'z hukmdorini sotgan xoinlarni quyidagicha jazolaydi:

*Topib chunki Doro ishidan farog',
Tutub iki qotilni aylab so'rog'.*

*Ko'mub dor uchun iki sutun,
Ul ikkini osturdi andin nigun.*

O'tmishda esa voqea boshqacha bo'lgani ko'pchilikka ayon. Ya'ni oldinroq aytib o'tilganidek, Yunon hukmdori Filipp Ikkinchi Eronga yurish qilishga hozirlik ko'rayotganda o'z saltanatidagi dushmanlari tarafidan o'ldirilgan. Otasining bu ishini tajovuzkor o'g'li davom ettirgan. Natijada Eron va Makedon qo'shinlari miloddan avvalgi 333 va 331 yillarda ikki marta to'qnashgan. Oldingi jangda qo'shinlari parokandalikka yuz tutib, mamlakat ichkarisiga chekingan Doro ikkinchi to'qnashuvda rostakamiga yengilgan va qolgan-qutgan bir necha navkari bilan Baqtriyaga qarab qochgan, yo'lda u Baqtriya noibi Bess tomonidan o'ldirilgan.

Mazkur bobda fikrimizni tasdiqlaydigan ikkita detal bor. Birinchisi, Doroning qo'shini Iskandarnikidan bir necha barobar ko'pligi. Tarixiy asarlardan ayonki, Amir Husayn Qarshi qal'asini qo'riqlash uchun qo'rg'onbegi amir Musoga o'n ikki ming otliq askar tayinlaydi. Amir Temur ikki yuz qirq uch nafar navkari bilan ana shu o'n ikki ming askardan qal'ani tortib oladi va ularni olti-etti chaqirim masofaga quvib boradi. Ikkinchisi, yaqin kishilarning o'z hukmdoriga xiyonati masalasi. Sohibqiron xiyonatkor kishilarni o'ziga eng yomon dushman bilgan. Chunonchi, To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda To'xtamishxonning ayrim amirlari o'z hukmdoriga xoinlik qilib, uning huzuriga panoh istab kelganlari uchun ulardan yuz o'g'irgan. "Bular o'z sohibiga vafodorlik qilmagach, menga vafo qilarmidi?" deb yozadi o'z "Tuzuk"larida.

Yana bir voqea. Dostonning XXXV bobida jahondorlik iddaosi bilan chiqqan Iskandar qishni Qorabog'da o'tkazadi. Bu yerda u ilmu hikmat ahllari, harbiy sarkardalar bilan majlislar tuzadi, yaqinlariga mehribonliklar ko'rsatib, ularga Tangridan madad so'raydi. Bu ishlardan forig' bo'lgan chog'larda ot minib, Aras daryosi bo'yiga shikorga chiqib, daryo bo'yidagi o'rmonlarni sayr qilib hordiq chiqaradi.

*Ki chun qildi qishloq azmiga shoh,
Qarobog'i Arronni oromgoh...*

*Farog'at chog'i sayr o'lub peshasi,
Matofi Aras ro'dining beshasi.*

Arron - Ozarboyjonning qadimiy nomi

Tarixiy manbalarga ko'ra, bahorda Dashti Qipchoqqa yurishni rejalashtirib Qorabog'da qishlayotgan Sohibqironga Samarqanddan yo'lga chiqqan amirzoda Muhammad Sulton lashkari bilan kelayotgani xabari yetadi. Barcha shahzoda, amirzoda va beklar Aras ko'prigidan o'tib, mehmonni kutib oladi, so'ng barchasi Sohibqiron huzuriga keladi. Sohibqiron unga va boshqa shahzodalarga ko'p mehribonchiliklar ko'rsatadi. Qish fasli suhbat va ayshu farog'at bilan o'tadi.

Sharafuddin Ali Yazdiy va Nizomuddin Shomiy asarlarida yozilishicha, bir zamonlar Aras daryosidan ekinzorlarga suv olish maqsadida katta ariq qazilgan. Vaqt o'tishi bilan bu ariqda suv yurmaydigan bo'lib to'lib qolgan. Dostonda tasvirlanganidek, daryo bo'yida ov qilib yurgan Sohibqiron shu ariqni ko'rib qoladi va uni qayiq

yursa bo'ladigan darajada kengaytirib tozalattiradi. U suvdan ko'p bog'lar, kentlar va ziroatlar ma'mur bo'ladi.

"Saddi Iskandariy"da dostonning bosh qahramoni Ko'hak (Zarafshon) daryosi bo'yida bir go'zal shahar bino ettirgani va uni Samarqand atagani haqida gap boradi.

*Skandar otodi Samarqand ani,
Samarqandi firdavsmonand ani.*

Bobur Mirzo ham shu fikrni aytgan: "Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mug'ul va turk ulusi Semirqand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi" (*Zahiriddin Muhammad Bobur.Boburnoma.T., "Sharq", 2002, 59-bet*).

Tarixda Samarqand dostonida bitilgani kabi Iskandar tomonidan bino etilmagan, aksincha, miloddan oldingi 329 yil Aleksandr Makedonskiy qo'shinlar tomonidan vayronaga aylantirilgan.

Bobur Mirzo yozganidek, Amir Temur uni o'z saltanati poytaxti qilib, jahonning eng zo'r me'morlarini olib kelib bu yerda ulkan binolar barpo etgan, shaharning qiyofasi uning davrida butunlay o'zgarib ketgan. Akademik V.Bartold ta'kidlaganidek, Amir Temur Samarqand jahonning eng go'zal shahri bo'lishini orzu qilgan. Asarda Samarqanddan tashqari Sipohon, Ray, Hirot shaharlarini ham Iskandar bino qildi deb yozilgan.Demak, bu shaharlarni Iskandar yoki Amir Temur bino qilmagan, Sohibqiron ularni obod shaharlarga aylantirishga hissa qo'shgan.

Asarda bitilishicha, Iskandar Kashmir va Hind viloyatlariga yurish qilganda Kashmir sultoni Mallu ibn Mabok unga qarshi urush olib boradi. Iskandar uni mag'lub etadi va uning vasiyatiga ko'ra qizi - Mehrnozni xotinlikka oladi, o'g'li - Feruzshohga otasining taxtini topshiradi.

Jang maydonidan shahar ichkarisiga chekingan Malluxon yarim tunda shahardan ham qochib chiqib tog'dagi qal'aga bekinadi. Shunda uning a'yonlari Iskandarga quyidagi mazmunda xat yuboradi:

*Ki: "Malluda bo'lg'on zamon bu diyor,
Yo'q erdi bu qullarga hech ixtiyor,*

*Ki qilg'ay eduk xizmat izhorini,
Ayon aylabon qulluq asorini.*

*Bu damkim ani shavkating qildi past,
Firor ixtiyor etti, topib shikast.*

*Necha bandalig' ichra sharmandabiz,
Nekim bizga hukm aylasang bandabiz.*

*Yorug' aylasang mulki vayronimiz,
Fidodur sanga mol ila jonimiz.*

*Vag ar bizni istarga farmon erur,
Boriga yuzing ko'rmak armon erur.*

*Erurbiz ne-hukm aylasang muftaxir,
Bu noma javobiga biz muntazir".*

Aslida miloddan avvalgi 327 yilda Makedon qo'shinlari Hindiston tog'laridan oshib Panjob-Hind vohasiga kirib boradi. Bu voha podshohlaridan biri Por bosqinchilarga juda qattiq qarshilik ko'rsatadi. Panjobni katta qiyinchilik bilan qo'lga kiritgan Makedonskiy Gang vohasi va butun Hindistonni bosib olmoqchi edi. Ammo Gang vohasida kuchli Nand saltanati qo'shinlari turardi. Bosh ustiga, shu vaqtlarda askarlar ichida bezgak kasalligi tarqaydi. Aleksandr o'z qo'shinining qarshiligiga uchrab, ortga qaytishga majbur bo'ladi. U Bobilda navbatdagi yurishga tayyorgarlik ko'rayotganda bezgak kasalligidan vafot etadi. Aleksandrning o'limidan so'ng saltanat parchalanib ketadi.

Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma"sida esa Malluxon bilan jang qilayotgan Sohibqironning oldiga kelgan Feruzshoh o'zini Sulton Mahmudning o'g'li deb tanishtirib, undan otasining taxtini Malluxondan olib berishni so'raydi.

Aslida Dehlida 1351-1388 yillarda hukmronlik qilgan Tug'luqlar sulolasi vakili Feruzshoh qazo qilganidan so'ng Multon viloyatining hokimi Sorang va uning ukasi Mallu Feruzshohning nabirasi Sulton Mahmudni podshoh ko'tarib, Hindiston hukumatini o'zlari boshqarar edi. Sohibqiron bilan yuzlashganda, xuddi dostonida bayon etilganidek, Sulton Mahmudxon va Malluxon avval shahar ichiga qochib kiradi, so'ngra yarim tunda ikkalasi shaharning ikki darvozasidan: Sulton Mahmudxon - Havdoron, Malluxon - Baraka darvozasidan chiqib qochadi. Tongda

esa Malluxonning noibi Fazlulloh Balxiy boshchiligidagi devonbegilar va shahar ulug'lari chiqib Sohibqironga Malluxonning zulmidan to'yanini izhor qiladi.

"Saddi Iskandariy" bosh qahramonining zafarli yurishlarida unga dunyo sirlaridan boxabar donishmandlar hamroh bo'lgan. Turli joylarda uchragan kutilmagan to'siqlar olimlar ilmi bilan bataraf etilgan.

Dostoning LXXXI bobida Iskandarning vafotidan so'ng dilbandining qabrini makon etib tunu kun farzand dog'ida o'rtanayotgan onaga tasalli berish maqsadida yetti donishmand tashrif buyuradi. Ular - Filotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfinyus, Arastulardir. Aslida bu donishmandlar bir-biridan juda uzoq davrlardan yashamagan bo'lsa-da, ulardan faqat Arastu Makedonskiyga zamondosh va faqat u Aleksandrga doimiy hamrohlik qilgan. Shu jihatdan, bu olimlarning birgalikda ta'ziya izhor etgani kelishi tarixiy haqiqatdan yiroq. Bu o'rinda shoir aql-idrok, ilmu mahrifat bilan boshqarilgan saltanat qudratli bo'lishi, Iskandarning kuch-qudrati manbai ana shu donishmandlar ekaniga ishora qilmoqda. Shuning bilan birga bu yerda pir-muridlik munosabatlari ham ko'zda tutilgan. Dostonda Arastu - piri komil, Iskandar esa komillikka intilgan murid timsolidir. Iskandar asar rivojida bot-bot Arastuga o'zi yechimini topolmayotgan masalalar yuzasidan savollar bilan murojaat etadi va ustozidan olgan javoblari bilan bilimini boyitib boradi.

Moziyda Sohibqiron atrofida doim Olloh taoloning do'stlari hisoblangan karomatguy avliyolar bo'lgan. Boisi, Amir Temur har doim piri murshidlarga ixlos bilan xizmat qilgan va ularning duosi sharofati ila ulug' martabaga erishgan. Uning pirlari - Xoja Shamsuddin Kulol, Sayyid Amir Kulol, Mavlono Zaynuddin, Abubakr Tayyobodiy, Mir Sayyid Baraka, Xoja Bahovuddin Naqshband, hazratlari edi. Bulardan tashqari ham Sohibqironga ko'plab yetishgan zotlar hamrohlik qilgan. Jumladan, Sohibqiron Dehli voliysi Sulton Mahmud bilan jang qilganda hindistonliklar yaxshi qurollangan hisobsiz askarlari bilan birga yuz yigirmata filni jangga olib kiradi. Fillarning haybatini ko'rgan lashkarning ko'ngliga vahima tushadi, otlar hurkib qochib, fillarga yaqinlasha olmaydi.

Dushman bilan yuzma-yuz turganda qo'shinning sarosimaga tushishi mag'lubiyatdan o'zga narsa emas. Bunday paytda g'oyibdan bir kuch kelib kishini quvvatlantirmasa, boshqa hech qanday chora yo'q. Har doim Ollohga tavakkal qilgan Sohibqiron "Shu soatda oliy dargoh bandalaridan (payg'ambar avlodlari nazarda tutilmoqda - **D.J.**) mavlono Nosiriddin Umarga ishorat qildi, u darhol joynamozni tufroq ustiga soldi. Janob hazrat otdan tushib, ikki rakaat namozni ming tazarru va niyozmandlik bilan ado etdi, oliy va ulug' baxshoyanda (Olloh)

dargohidan fathu zafar atosini so'radi. Shu holatda mang'loyda (qism) turgan amir Shayx Nuriddin, amir Shoh Malik, amir Allohdod kabi amirlar: "Hazrat Amir Sohibqiron davlat egasidirlar, Xudo xohlasa, Haq taolo u zotning muborak xotiriga solib, qul (lashkarning markaziy qismi) qismdagi askarlardan bir to'dasini biz bandalarining yordamiga yuborsalar (ajab emas)", deb ko'ngillaridan o'tkazgan edilar, a'lohazrat namoz o'qib, salom berib, dargohi ilohiyga hojatlarini arz etgach, "Davlat egalari ilhomli bo'ladilar" degan mazmun ijobicha (binoan) qo'shinlardan o'ng qo'l tomonga, mang'loyga yordam bersinlar, deb hukm qildi. Shunga binoan u (amir)larning dillariyu bilaklari quvvatlanib, to'la umid bilan jangga yuz tutdilar..." (*Nizomuddin Shomiy. Zafarnoma.T., "O'zbekiston", 1996, 249-250 betlar*).

Sohibqiron har bir ishga qo'l urishdan oldin piru murshidlaridan maslahat so'ragani, hech qachon ularning ra'yiga qarshi bormagani uchun ham shunday katta saltanat hukmdori bo'lish nasib etganini o'z "Tuzuklar"ida bir necha bor qayd etgan.

Millatimiz quyoshi - hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidan olgan xulosamiz shu. Ehtimol, bitganlarimiz kimlargadir ma'qul bo'lar, ba'zilar o'tganlarni zamonaviy mafkuraga moslashtirishdan xalos bo'lgan Edik-ku, bu nimasi yana, dya kinoya qilar. Ammo biz fikrimizni havodan olmaganimizni isbotlash uchun bir necha ilmiy manbalardan misol keltirdik. Yechimini topa olmagan masalalarga ham xolis yondashgan holda taxminlardan o'zimizga yoqqanini zo'rakilik bilan tiqishtirib, o'shaning haqligiga siz ham ishonning, deb o'quvchi ongiga tazyiq o'tkazishga urinmadik.

"Saddi Iskandariy" dostonining bosh qahramoni prototipi Amir Temur emasmikin, degan fikr uyg'onishiga tarixiy faktlar va Navoiy yashagan muhit hamda uning turkiy millatga mansubligi sabab bo'ldi. Mantiqan olib qaraganda, Navoiyga bir zamonlar yurtini g'orat qilib, ajdodlarining qonini to'kkan makedoniyalik bosqinchining vahshati ilhom bag'ishlaydimi yoki yurtini ozodlikka olib chiqish barobarida turkiylarning hukmi ostiga yarim dunyoni birlashtirgan Sohibqiron shavkatimi?

Albatta, Iskandar ramziy obraz, xolos. Shoir asarida tarixiylik emas, badiiylik asosiy o'rin tutadi. Shu jihatdan Iskandar timsolida adolatli shoh haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, asardagi ijobiy obraz prototipini topish ijodkorning ixlosiga bog'liq hodisa. Navoiy dahosi ana shu hodisaga katta

mafkuraviy vazifa yuklab yuborgan. Bundan tashqari, shoir asarni yozishda juda ko'plab tarixiy adabiyotlardan foydalanganini ham ta'kidlab o'tgan.

"Saddi Iskandariy"ning bosh qahramoni din himoyachisi. U turli yurtlarga Tangriga taoloning dini olib boradi, xurofotchilik, bid'at kuchaygan joylarda tartib o'rnatadi.

Ayonki, o'ttiz uch yillik qisqa umrini jangi jadallar ichida o'tkazib yuborgan Aleksandr Makedonskiy na din himoyachisi bo'lgan va na shaharsozlik, yaratuvchilik ishlariga vaqt ajrata bilgan.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng o'lkada iqtisodiy va ma'naviy inqiroz hukm sura boshlagan edi. Shu davrda xalqning ruhini ko'taradigan, muqaddas dinimizni yanada kengroq yoyishga xizmat qiladigan, ommani yagona mafkura atrofiga birlashtira oladigan Amir Temurday jasoratli va tashkilotchi inson jamiyatga zarur edi. Oллоh taolo ana shunday zotni yaratib qo'liga kuch, yuragiga quvvat, qalbiga ilhom baxsh etdi. "Islom dinini yoyib, unga ravnaq berganim haqidagi ovoza kattayu kichik ahli mo'minning qulog'iga yetgandan keyin, islom olimlari: "Tangri taolo har yuz yilda Muhammad unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin diniga rivoj berish uchun bir kishini Islom dinining yoyuvchisi va rivoj berguvchisi sifatida ixtiyor etadi. Bu sakkizinchi yuz yillikda Amir Sohibqiron Islom dinini jahon ahliga tarqatdi. Shuning uchun bu yuz yillikda Muhammad diniga rivoj berguvchi zot shu kishi bo'lg'ay", deb fatvo berdilar" (*Temur tuzuklari. T., "Sharq", 2005, 68-bet*), deya ko'ksi g'ururga to'lgan Sohibqiron bu gapdan so'ng o'zidan oldin Islomni quvvatlantirgan yetti zot haqida aniq hujjatlar asosida hikoya qiladi. Ular Umar ibn Abdulaziz (712-720), Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid (813-883), Muqtadir billoh Abbosiy (908-932), Izzuddavla Daylamiy (967-978), Sulton Sanjar ibn sulton Malikshoh (1118-1157), G'ozonxon ibn Arg'unxon ibn Halokuxon (1295-1304), Uljoytu Sulton ibn Arg'unon - Sulton Muhammad Xudobandalardir (1304-1317).

Dostondagi voqealarni Sohibqiron bobomiz tarixi bilan birma-bir qiyoslasangiz, faqat xamsachilik an'anasiga rioya etilgan holda saqlanib qolgan ismlarda farq ko'rinadi, xolos. Qolgan har bir bob, har bir sahifa, har bir bayt Sohibqiron shavkatidan so'zlaydi. Navoiy "Xamsa"ni tugatib Husayn Boyqaroga taqdim etgan damdagi voqeani eslang, nega hukmdor o'z vaziri yoki ijodkor shoirga jilovdorlik qilib yuribdi?

Bizning anglashimizcha, bu jilovdorlik yarim dunyoni turkiylar bayrog'i ostiga birlashtirgan Sohibqiron ruhi pokiga hamda millatimiz faxri, ulkan so'z ustasi - ulug' Navoiy ijodiga hurmat-ehtirom ramzidir. Ehtimol, Husayn Boyqaro

Navoiydan turkiylarning ulug' ajdodlaridan biri, xususan, o'z bobosining zafarli yurishlarini insoniyat tarixiga kiritgani va bu asar asrlar davomida sevib o'qilishini bilgani uchun ham minnatdor bo'lgandir...

"SADDI ISKANDARIY" ("Iskandar devori") — "Hamsa" (Navoiy)ning yakunlovchi dostoni (1485). Asar 89 bob, 7215 baytdan iborat bo'lib, Navoiy ijodidagi hajman eng yirik epik asardir. Doston aruzning mutaqorib bahrida turkiyda yozilgan. Hamsanavislikning buyuk namoyandalari: Nizomiy Ganjaviy, Hisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar Iskandar to'g'risida doston yozib, o'z "Hamsa"lariga kiritganlar. Dastlab musulmon dunyosida Qur'oni karimning Kahf surasida nomi zikr etilgan hukmdor Zulqarnayn (Ikki shoxli, 18sura, 83 — 98oyatlar) hamda yunon sarkardasi va davlat arbobi Aleksandrii bitta shaxs deb bilishgan va u sharkda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo'lgan. Mazkur Iskandarnomalarga Iskandar timsolidagi Aleksandr faoliyati mavzu qilib olingan. Ammo asarlarda Iskandar timsoli tarixiylikdan tobora uzoqlashib, badiiy to'qima obrazga aylana borgan. Har bir hamsanavis Iskandar timsolida o'z ideallarini talqin etishga harakat qilgan.

Navoiy o'z asari avvalida, salafaridan farqli o'laroq, tarixiylikka, ko'proq tarix kitoblariga tayanib ish ko'rganini yozadi. Navoiy bu o'rinda o'z asarida Iskandar haqidagi boblar izchilligining Qur'ondagi Zulqarnayn haqidagi oyatlarga hamda tarixiy shaxs Aleksandr faoliyatiga muvofiq kelishini nazarda tutgan. Dostonning "S. I." deb nomlanishida ham Qur'oni karimning Navoiy uchun birlamchi manba bo'lganligi seziladi.

Navoiy talkinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartibqoidalarni katta olamdagi tartibqoidalarga muvofiklashtirish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Bu esa sufiyona talqin bo'lib, dostondagi muqaddima boblar, Iskandar voqealari hikoya qilingan boblar hamda unga ilova boblarda ham shoirning tasavvufiy qarashlari ustuvorligini ko'rish mumkin. Mas, Iskandar shisha sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi, turfa ajoyibotlarni ko'rib, vataniga qaytadi. U vafot etar ekan, bir qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishlarini so'raydi. Asarda Navoiy insonni bu foniy dunyo hoyu havaslariga ortiqcha ruju qo'ymaslikka chaqirib, garchi Iskandar jahonni egallagan jahongir bo'lsada, u narigi dunyoga hech narsasiz ketayotganligiga ishora qiladi.

Doston turkiy adabiyotda ko'plab naziralar yozilishiga turtki bo'lgan (Abay, "Iskandar", 19-a.; Shayxzoda, Iskandar Zulqarnayn", 20-a. va boshqalar). Iskandar obrazi she'riyatda an'anaviy obrazga aylangan.

Xulosa

“Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori “) – Alisher Navoiyning adolatli va ma’rifatli hukmdor rahnamoligida markazlashgan davlat barpo etish, xalq osoyishtaligi va yurt ma’murligini ta’minlash, o’zaro toj-taxt kurashlari, ixtilof-u nifoqlarga barham berish singari umumbashariy g’oyalarni o’zida badiiy ifoda etgan dostonidir. Ulug’ shoir

“Xamsa” tarkibidagi boshqa asarlarda bu masalaga alohida e’tibor berib, Anushervonni odil, Sulton Muhammad Xorazmshoh, Shohi G’oziy, Chin xoqoni, Xusrav Parvez, Bani Omir va Hay qabilasi boshliqlari, Ibn Salom, Bahrom singari katta-kichik hukmdorlar obrazini ijod etdi. Mazkur asarlarda o’sha hukmdorlarning yaxshi a’mollari yuksak san’atkorlik bilan vasf etilgan bo’lsa, ularning tabiatidagi noqisliklar tanqid ostiga olindi. “Hayrat ul-abror” dostonida “Iskandarning yetti iqlim mamolikini panjai tasarrufig’a kiyurg’oni va xoli ilik bila olamdin rixlat markabin surgonini ibrat namunasi qilib ko’rsatgan buyuk mutafakkir “Saddi Iskandariy” da odil va ma’rifatli, ma’naviy yetuk shoh obrazini Iskandar timsolida mujassamlashtirdi. Bu bilan shoir “Xamsa” tarkibidagi boshqa dostonlarida ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy qarashlarini “Saddi Iskandariy” dostonida yanada takomillashtirib o’zi orzu qilgan hukmdorning mukammal obrazini asar qahramoni misolida badiiy tasvirladi.

Iskandar tarixiy shaxs bo’lib, u eramizdan oldingi IV asrda (356-323) yashagan buyuk jahongir Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi nomidir. Sharq xalqlari orasida bu ulug’ sarkarda Iskandar Zulqarnayn, Iskandari Rumiy, Iskandar Maqdon nomlari bilan atalgan. Aleksandr nomi shu so’zga talaffuz jihatdan uyg’un “Iskandar” so’zi bilan ifodalangan bo’lsa, “Rumiy” va “Maqdon” uning vatanini anglatgan.

“Zulqarnayn” Iskandarning ilohiylashtirish zaminida unga berilgan sifat bo’lib, ikki shohli degan ma’noni bildiradi degan ma’noni bildiradi. Manbalarda ma’lumot berilishicha, shoh juda qadim zamonlarda Yaqin Sharqda ilohiy qudratning timsoli sanalib, xudolar singari shohli tarzda tasavvur qilingan. Aleksandr Makedonskiyning tarbiyasi bilan uning ustozlari Aristotel (Arastu er.av . 384-322) shug’ullangan. Eramizdan avvalgi 336-yilda otasi Filipp o’ldirilgach, Aleksandr Makedonskiy taxtga chiqadi. 26 yoshida Doro III ni yengib, Eronni egallaydi. Keyinchalik u Movoraunnahr va Hindistonni zabt etadi. Dunaydan Hind daryosigacha bo’lgan katta hududda ulkan mamlakat barpo etadi, nihoyat, eramizdan avvalgi 323-yilda, 33 yoshida vafot etadi. Sharq yozma badiiy adabiyotida atoqli fors-tojik shoiri Abulqosim Firdavsiy ilk bor Iskandar haqida doston ijod etdi. Asrning boshqahramoni “Shohnoma” tarkibidagi qator sasoniy hukmdorlarga bag’ishlangan dostonning yetakchi obrazlari danksinif arqqilmaydi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni uchun Iskandar Zulqarnaynning jahongirlik yurishlarini asos qilib olsa-da, ulug’ shoir asarida tarixiy Iskandar-Aleksandr Makedonskiydan farqqiluvchi yangi boshqahramon obrazini yaratdi. Buyuk mutafakkir o’z davriga qadriyozm va og’zak badiiy adabiyotning turli janrlarida sayqall

ashib, takomillashib borgan Iskandarobraziva uning hukmronligi, jangovoryurushlarining badiiy lavhalaridan ijodiy foydalandi. Shuningdek, bu asar "Xamsa" tarkibidagi boshqamasnaviylar dailgarisurilgan yetakchig'oyanita komillashtiruvchi, yaxlit janr hisoblangan "Xamsa" ning yakunlovchi dostoni bo'lgani uchun uning tuzulishinavo iyonabadiiy tafakkur bilan alohida mohiyat kasbetadi. "Saddi Iskandariy" dan azariy-axloqiy doston sanalgan "Hayratul- abror" "vayaxlit voqealaritizimiga egadostonlar" "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai Sayyor" asarlariga xostuzulishningo'zaroyaxlitlashuviko'z gatashlanadi. Dostonning asosiy voqealarilskandarning tug'ulishi, Faylaqusunivaliahddebe'lonqilishi, tarbiyalaganotasivafotidan so'ng, Iskandarning taxtgachiqishilavhalarinio'zidamujassamlashtirgan XV bobdan boshlanadi. Bu bob asar asosiy voqealaritizimining muqaddimasisanaladi. Keyingi tartibda keluvchi harto'rtbob mazmunan bir-biri bilan Uzviy bog'langan bo'lib, asarning alohida bir qismini tashkilotadi. Unda Iskandarning sarguzashtlariga oid biror birlavhanitasvirlashdan oldin hukmdorningto'g'riyo'ltutganiniazariyasoslashuchun avvalgiuchbobdama'lumbir masalaxususidagishoirningmulohazalari, unitasdiqlovchibirorhikoyayokimasalvaArastuningaynimasalagaoidqarashlariketiradi. Asardagiharto'rtbobning dostonning bir qismini tashkilotishilskandarsarguzashtidan bahsetuvchi boblarningso'ngidakeltirilgan lavhagayakunyasovchisoqiy, mag'onniy vashoirningo'zigamurojaatio'rinolganligidahamko'riladi. Sakson to'qqiz bobdantashkilotpgandostonning muqaddimasisanalgan XV bobda Alisher Navoiy talqinidagi Iskandar tarixiy Iskandar-Aleksandr Makedoniskiydantamomilafarqliekanligiga ishora qilinadi. Ma'lumki, tarixiy manbalarda Iskandar Zulqarnaynning naslnasabixususidaturlichama'lumotlar uchraydi. Ba'zida uni Eron shohi Doro II ningo'g'lidesa, boshqa asar mualliflari jahongirning shajarasini Misr firavnlari gaboribtaqalishini qaydetadi. Alisher Navoiy dostonidagi Iskandar esa asrab olingan farzand, uning nasl-nasabi ma'lum emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.T.: 2008.
2. А. Навоий Асарлар, 15 томлик. “Мажолис ун-нафоис” 12 том Тошкент -20
3. Alisher Navoiy. Asarlar 10 jildlik. 9 jild. Toshkent. 2011.
4. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy- tanqidiy qarashlari.// O'zbekiston madaniyati T. 1959
5. *G'aniyeva S.* //Fozil va hunarmandlarning tab'i nazmi. “Kitob dunyosi” gazetasi.

Internet saytlari:

6. www.ziyonet.uz
7. www.ziyouz.com
8. www.google.uz
9. www.google.ru
10. www.natlib.uz